

ESSE YOZISH KO`NIKMASINI O`QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISH

Xayriddinova Mohina Jamshid qizi

ToshDO`TAU magistranti

mohinaxayriddinova@gmail.com

Annotatsiya: Esse ilk mustaqil janr sifatida, ona tili ta`limida essening o`rni, kirish, asosiy qism, xulosa qismi, fikr aniqligi, tushunarllilik, to`g`ri tanlangan mavzu, mustaqil fikrlarni bayon etish haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: esse, aniqlik, dalil, asos, isbot, xulosa, bayon etish, tajriba, mahorat, ijodiy qobiliyat.

FORMATION OF ESSAY WRITING SKILLS IN STUDENTS

Annotation: essay as the first independent genre, the role of the essay in the native language, the main part, the consultation part, clarity of thought, comprehensibility, correctly chosen topic, expression of independent opinion.

Keywords: essay, precision, evidence, proof, consultation. Statement, experience, skill, creativity.

Bugungi ona tili ta`limida ko`nikmalar asosida o`quvchilarning bilimimi oshirish muhim masalalardan biriga aylandi. Til ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bo`yicha ko`rsatmalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Ko`nikmalar orasida yozish bosqichi alohida o`rin egallaydi. Yaratilayotgan yangi darsliklarda ham bu ko`nikma bo`yicha juda ko`p ishlar amalga oshirilgan. Yozma ish turlari haqida, ularni yozish, tahlil qilish, xulosa yasay olish kabi jarayonlarni o`z ichiga olgan ko`nikma fikrlash jarayoni uchun yaxshigina sharoit hisoblanadi.

Yozma ish turlaridan biri bo`lgan esse fikrlash jarayonini yanada aniqlashtiruvchidir. Esse haqida juda ko`p ma`lumotlar mavjud. Dastlab adabiyot yo`nalishida janr sifatida paydo bo`lib, yaqin 5-6-yil ichida ona tiliga ham kirib keldi. Bir qarashda oson tuyilgan bu yozma ish turi o`quvchidan diqqat va aniqlikni talab etadi. Bitta mavzu asosida fikrni boshlash, unga dalil keltirish va xulosalay olish muhim jarayon sanaladi. O`quvchilarga aynan shu bosqichlardan qanday o`tish kerakligi o`rgatiladi. Essening ona tili ta'limga kirib kelishi, fikrni aniq va tushunarli va asosiysi dalillar bilan yetkazib berish imkoniyatini yaratdi. Esse erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo`lib, badiiy-publisistik janrning bir turi. Esse muayyan bir reja asosida yozilmaydi. Esse asosan uch qismdan iborat bo`ladi. Kirish-mavzuni mantiqiy va uslubiy jihatdan bog`lab oydinlashtirishdir. Bu qismda savolni to`g`ri qo`ya olish muhimdir. Unda kamida ikki-uchta xatboshi bo`lishi lozim. Mavzuga kirish, uni qay darajada tushuna olganinibilish aynan shu qismda yuzaga chiqadi.

Asosiy qism – savolning mazmunini bayon etuvchi qism. Bu qismda asosiy fikrlar, dalillar va faktlar keltiriladi. Kamida ikkita dalillar keltirilishi kerak. Kirish qismida berilgan savolga aynan asosiy qismda javob topiladi.

Xulosa – bu yakuniy qism, bunda fikrlar umumlashtiriladi. Muammoning yechimi yanabir bor tasdiqlanadi. *Xulosa qilib aytganda, shunday xulosaga keldimki* kabi jumlalarni ishlatalish o`rinli bo`ladi.

O`quvchilari uchun tanlangan yaxshi mavzu essening muvaffaqiyatli chiqishiga sabab bo`luvchi muhim omillardan sanaladi. To`g`ri tanlangan mavzuda o`quchi cho`chimasdan o`z fikrini bildira oladi. Orttirgan tajriba va bilimlari asosida fikrlarini bayon etadi. Tushunib yozilgan har qanday ijodiy ishning mahsuldorligi yuqori bo`ladi.

Essening muhim jihatlarini sanab o`tamiz:

- unda badiiy to`qima va fantaziya bo`lmaydi. Adabiy til uslublariga rioya qilingan holda yoziladi;
- bitta savol o`rtaga tashlanadi va shunga javob beriladi;

- ko‘lamiga e’tibor beriladi (200-250 so‘zdan iborat bo‘ladi. Kirish -60-70 so‘z, asosiy qism – 100-130 so‘z, xulosa – 30-40 so‘z)
- kirish va yakuniy qism o‘zaro bog‘langan bo‘ladi;
- ma’lumotlarni berishda hikoyashdan chekalanish, asosiy fikrni aytish muhim;
- Agar boshqa manbadan ma’lumot keltirilgan bo‘lsa, olingen ma’lumotlar o‘z o‘rnida keltirilgan bo‘lishi kerak;

O`qituvchi tomonidan o`quvchilarga essening kirish qismida aynan nimalarga e’tibor berish kerakligi aytib o’tiladi. Masalan, “Yaxshi fazilatlar” mavzusida yozilayotgan essening kirishqismida yaxshi odamlar, ularning qilgan yaxshiliklari haqida emas, fazilat o`zi nima ekanligi haqida yozilishi kerak. Asosiy qismida yuqoridaagi masala yaxshi inson, uning yaxshi fazilati orqaidan erishgan yutuqlari haqida naniq dalil keltirilishi lozim. Xulosa qismida ikki qismdagi fikrlar umumlashtiriladi. O`quvchi o‘z mustaqil fikrlari bilan esseni yakunlaydi. Butunlay yangilangan darsliklarda esse va unga bo`lgan e’tibor ancha yaxshi. Fikrni erkin bayon etish, uni aniq va tushunali qilib yetkazib berishda essening o`rni katta bo`lib bormoqda. Essega bo‘lgan talab, talaba, o`quvchilarning holat va jarayonlarga oddiygina fikr bildirishlari emas, balki muhokama qila olishlari, tanqid qila olishlari, o‘zlarining sof munosabatini bildira olishlari bilan paydo bo‘ldi. Essening ham bosh hamda asosiy talablari ham aslida shunday ko‘rinishdadir. Esse yozish bo‘yicha juda ko‘p tavsiyalar mavjud. Oquvchining shaxsiy fikrini hurmat qilgan holda esseni baholash, unga holisona baho qo‘yish o‘qituvchining muhum vazifasi hisoblanadi. Fikrlar aniq va tushunarli ekanligi juda muhim. Esseni yozishni shakllantirishda aynan mana shu xususiyatlarga e’tibor qilinishi lozimdir.

Foydanaligan adabiyotlar ro`yxati:

1. Azimova I. (2019). *Lisoniy malakalarni rivojlantirishning psixolinguistika asoslari*. Toshkent, O`zbekiston: Global ta`lim metodika.
 2. Nunan D. 1991. *Language teaching methodology*. USA, Prentice Hall International English Language Teaching.
 3. Esonova M.Q 2020. *5-sinf o`quvchilarida fikrni yozma bayon qilish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari*. Toshkent,O`zbekiston
 4. Xayriddinova M.(2022).
- <https://www.mendeley.com/reference-management/reference-manager>dan olindi.
5. Xayriddinova M.(2022). <http://diss.natlib.uz> dan olindi.
 6. Rahman, R.M., Sarker, T.R. (2019). *Teachers` Classroom Practice to Develop Student`s English Writing Skills at Primary Level of Bangladesh*. Pendidikan Journal, 8-9.